



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika  
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

# UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2020,  
Maxsus son

*DJURAYEV Risbay*  
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina  
boshlangan.  
O'z MAAdan 2007 yil 3-yanvar-  
da № 0101-tartib raqami bilan  
gayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan  
maqolalardan iqtibos keltirilganda  
«Uzluksiz ta'lim»  
jurnalidan olinganligi ko'rsatilishi lozim.

## Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV  
Uzoqboy BEGIMQULOV  
Alisher UMAROV  
Nargiza RAXMANQULOVA  
Xolboy IBRAGIMOV  
Shavkat QURBONOV  
Roxatoy SAFAROVA  
Islom ZOKIROV  
Dono G'ANIYEVA  
Lobar QARAXANOVA

## Тахририят манзили:

100027, Toshkent sh.,  
Furqat ko'chasi,  
174-uy.  
O'zPFITI  
Tel.: (71)-245-92-34  
(93)-503-52-07  
e-mail: uzluksiztalim\_jurnal@mail.ru  
liya\_2305@mail.ru

## TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **O.X.Xamidov**  
Oliy ta'lif va maktabgacha ta'lif muassasalari integatsiyaning asosiy tendensiyalari va muammolari
- 9 **O.R.To'xsanov**  
Uzluksiz ta'lif tizimida sharq mutafakkirlarining «ilm olmoq» ta'lifoti mohiyati
- 13 **G.Q.Hasanova**  
Maktabgacha ta'lif tashkillotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalarning qo'llanishi
- 17 **M.M.Nigmatova**  
Mashg'ulotlardan zamonaviy o'quv vositalaridan foydalanish
- 21 **G.Kamilova, G.Kurbanova**  
Maktabgacha ta'lif muassasalarida ekologik tarbiyani tashkil etishda integrativ yondashuv
- 25 **Z.B.Jalilov, N.H.Azimova, S.Rahmonova**  
Ta'lif muassasalarida estetik tarbiyani amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlar
- 29 **S.S.Avezov**  
O'qituvchi nutq madaniyati kompetentligi
- 33 **G.U.Umarova**  
Bolalarning iqtisodiy bilimdonligini rivoshlantirishda matematik tasavvurlarni shakllantirish mashg'ulotlarning ahamiyati
- 38 **D.Sh.Mirzayeva**  
Maktabgacha ta'lif uzluksiz ta'lifning poydevori
- 42 **D.Sh.Eshova, N.N.Hamroyeva**  
Bolalar nutqini o'stirishda o'yinlar va sahnalashtirish faoliyatining ahamiyati
- 46 **M.Y.Ro'ziyeva, Ch.T.Xemrayeva**  
Ta'linda xalq ertaklarining tarbiyaviy ahamiyati va ularni o'rgatishning innovatsion usullari

## MA'NAVİY TARBIYA

- 50 **G.Sh.Rahmonova**  
Shaxs kamolotida bo'lajak o'qituvchining ma'naviy-axloqiy va pedagogik kompetentsiyalarni shakllantirish
- 55 **M.B.Sharipova**  
O'qituvchi-yoshlar tarbiyasida o'lmas an'ana marosimlarning ahamiyati
- 59 **Г.Б.Эргашева**  
Личностное отношение условий учебной и профессиональной деятельности учителя
- 64 **С.Д.Ниязова**  
Роль игры в экологическом образовании дошкольников
- 69 **Л.Г.Расулова**  
Формирование элементарных математических представлений у дошкольников через дидактические игры
- 74 **Sh.Sh.Nizomova**  
Maktabgacha yoshdag'i bolalar nutqini rivojlantirishda tovus tizimini shakllantirish
- 78 **И.Х.Ражабова**  
Особенности организации и проведения дидактических игр с детьми старшего дошкольного возраста
- 84 **Н.А.Хамраева**  
Методы использования инновационных технологий на уроках русского языка и литературы
- 90 **N.S.Turdiyeva, Z.M.Ashurova**  
O'z-o'zini tarbiyalash borasidagi ajdodlarimiz qarashlari

## KASBGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK XIZMAT

- 94 **Г.Д.Ниязова, Н.Икрамова**  
Роль методической службы в развитии профессиональной компетентности педагога ДОУ
- 99 **L.T.Ochilova, L.Ch.Rajabova**  
Matematika mashg'ulotlarida didaktik o'yinlardan foydalanishning ahamiyati
- 103 **F.F.Nurullayev, N.A.Ukramova**  
Oilada sog'lom, man'aviy-axloqiy muhit
- 107 **Sh.H.Qulieva, A.A.To'raev, F.Sh.Avezova**  
Tizimni yondashuv asosida bo'lajak o'qitivchilarni kasbiy-pedagogik tayyorgarligini shakllantirish



## MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA EKOLOGIK TARBIYANI TASHKIL ETISHDA INTEGRATIV YONDASHUV

**G.KAMILOVA,**  
BuxDU dotsenti  
**G.KURBONOVA,**  
BuxDU 2-bosqich magistranti

*Ekologik tarbiya – milliy tarbiyaming bir bo‘g‘ini sifatida insn hayotida asosiy o‘rinda turadi. Ayniqsa, bugungi global ekologik muammolar insoniyat oldida turar ekan, ekologik tarbiyani maktabgacha ta’lim tizimi bosqichidan boshlash maqsadga muvofiqdir. Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik tarbiyani tashkil etishda integratsion yondashuv masalalariga e’tibor qartilgan.*

**Tayanch so‘zlar:** ta’lim, tarbiya, ekologiya, kompetentsiya, yondashuv, tejamkorlik, tadbirdorlik, ekologik bilim.

*Экологическое образование как часть национального образования играет ключевую роль в жизни человека. Особенно сегодня, когда перед человечеством стоят глобальные экологические проблемы, целесообразно начинать экологическое образование со стадии системы дошкольного образования. В статье рассматриваются вопросы комплексного подхода к организации экологического образования в дошкольном образовании.*

**Ключевые слова:** образование, воспитание, экология, компетентность, подход, экономика, предпринимательство, экологические знания.

*Annotation: Ecological education as a part of national education plays a key role in human life. Especially in today’s global environmental challenges facing humanity, it is advisable to start environmental education from the stage of the preschool education system. The article focuses on the issues of an integrated approach to the organization of environmental education in preschool education.*

**Keywords:** education, upbringing, ecology, competence, approach, thrift, entrepreneurship, environmental knowledge.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining ta’lim-tarbiyasi masalasi davlatimiz e’tiborida bo‘lib, ushbu tizimni yanada rivojlantirishga doir qator qaror va qonunlar chiqarilmoqda.

Bu boradagi tahlillar natijasida yirik hujjatlar-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 9-sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi P-3261-sonli qarori, 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-sonli Farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi –



faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi P-3305-sonli qarori imzolangan. Mazkur sohani takomillashtirish maqsadida qabul qilingan dasturda maktabgacha ta’lim sohasi uzlusiz ta’lim tizimining birlamchi bo‘g‘ini sifatida, bu jarayonda maktabgacha ta’lim muassasalarining bolalar huquqiy savodxonligini shakllantirishdagi o‘rnii hamda, respublikada ta’lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishi ekanligi ta’kidlangan. Barkamol inson tarbiyasini tashkil etish azal azaldan xalqimizning ezgu orzusi, ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi, millat ma’naviyatininguzviy bir qismi bo‘lib kelgan. Har bir oila farzandlarining barkamol ulg‘ayib o‘sishi uchun oila, mahalla va maktabgacha ta’lim muassasasi hamkorlikda ma’suldirlar. Oilada bola tarbiyasi uchun ota-onaning mas’uliyati alohida e’tiborga molik hisoblanadi. Bola tarbiyasini ona qornidan boshlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ushbu fikrni bir qator Sharq mutafakkirlari ham ta’kidlab o‘tishgan. Bolani tarbiyalash uchun, avvalo ota-onaning o‘zi tarbiyalangan bo‘lishi kerak.. Bu davrda bolani to‘g‘ri ovqatlantirish, to‘g‘ri parvarish qilish juda muhim. Biryoshgacha bo‘lgan davrda bola o‘ziga yaqin kishilarni ko‘rganda xursand bo‘ladi, rangdor o‘yinchoqlarni xush ko‘radi. Bu davrda bolani alla, ma’noli erkalashlar, chiroyli o‘yinchoqlar orali tarbiyalab borish lozim. 1 yoshdan 3 yoshgacha bo‘lgan bolalar esa turli o‘yinchoqlarni o‘ynay boshlaydilar, asta-sekin nutqi rivojlana boshlaydi. Bu davrda bolalar o‘yin orqali bir-birlari bilan aloqa bog‘laydilar, tasavvur, fikrlash jarayoni shakllanadi. Bu vaqt dan boshlab bolalarga do‘stlik, inoqlik, o‘zaro hurmat, bir-biriga yordam tushunchalarini sodda qilib tushuntrib borish ahamiyatlidir. Bolalar bu davrda eshitgan narsasini takrorlashga urinadilar, shu sababli bu davrda kattalarning ma’noli so‘zlashuvi, yurish-turishi, odobi, o‘zaro ahilligi, mehribonligi bola ruhiyatiga ta’sir etadi. Ota-onaya yoki tarbiyachilarning bolalarni sevishi, ulaming hatti-harakatiga ziyraklik va mehribonlik bilan munosabatda bo‘lishi, bolaning sog‘lom o‘sishiga, odob-axloqli bo‘lishiga olib keladi. Bolani lozim bo‘lganda maqtash, diqqatini ijobiy faoliyatga tortish, yomon ishlardan ehtiyyot bo‘lishini uqtirish, axloqsiz so‘z va gaplardan uzoqroqda bo‘lishini ta’minlash, o‘rtoqlari bilan urishmaslik yo‘llarini o‘rgatish – ularga axloqiy tarbiya berishda ijobiy ta’sir hisoblanadi. Barkamol insonni tarbiyalash masadi halq ta’limining hamma bo‘g‘inlari uchun yagonadir. Maktabgacha yoshdagagi bolalarni tarbiyalash maqsadlari asosida ularni yoshiga qarab belgilangandir. Maktabgacha yoshdagagi bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish jismoniy, aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiya majmuidan iboratdir. Ta‘lim-taraqqiyotni taminlovchi asosiy vositadir. Bu jahon tajribasida o‘z tasdig‘ini topganligi ma’lum. Bizning yurtimizda qadim qadimdan ilm o‘rganish va uning asosida mamlakatni ravnaq toptirish, bilimga intilishni ulug‘lash o‘ziga xos qadriyat sanaladi.

Milliy istiqlolga erishgan mustaqil Respublikamizda huquqiy va demokratik jamiyat qurish jarayoni muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan bir paytda ma’naviy



jihatdan barkamol yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish hamda ularni ona yurtni sevishga, moddiy va ma’naviy boyliklarini asrab - avaylashga, atrof-muhit tozaligini ta’minlashga o’rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Modomiki, kelajagimiz yoshlari qo’lida ekan, bolalarni maktabgacha yosh davridanoq tabiatni asrab-avaylashga oid ekologik bilimlar bilan qurollantirish va tabiat bilan yaqindan tanishtirib borish, ularga ekologik tarbiya berish, shu orqali bolalarning borliq to‘g‘risidagi tasavvurini boyitish, dunyoqarashini o’stirish, hayotiy tajribalarini mustahkamlash, mustaqil fikrlash qobiliyati va ma’naviy hissiyotlarini taraqqiy toptirish yanada muhimdir. Xususan, bolalarga inson umri tabiat bag‘rida kechishini, inson va tabiatning o‘zarbo‘mqliqligini, ularning bir-biriga nisbatan ta’sir ko‘rsata olishini hamda bu ta’sirlarning ijobiy va salbiy oqibatlarini anglatish, shu orqali bolalar o‘rtasida ekologik tarbiyani yo‘lga qo‘yish, yosh qalblarda ona tabiatga mehr-muhabbat tuyg‘ularini uyg‘otish - bugungi kunning dolzARB vazifalaridan biridir. Maktabgacha ta’lim muassasalarini uchun mo‘ljallab yozilgan «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturida ham bolalarga ilk tabiat xakidagi bilimlarini rivojlantirish borasida bolalarning ilk rivojlantirish masalalarida ota-onalar va jamiyatga tegishli bilimlar berishni tashkil etish va amalga oshirish masalalari kiritilgan. Dasturda bu borada ota-onalar bilan ishlash xamkorlikni rivojlantirishda quyidagi vazifalar ko‘rsatib berilgan

1. Ota-onalarning maktabgacha ta’lim muassasasi borasidagi fikrlarini hisobga olish;
2. Ilk rivojlanish masalalarida ota-onalarga bilim berish;
3. Ota-onalarning o‘quv-tarbiyaviy jarayonda faol qatnashishga jalb etish;
4. Ota-onalarning muassasa xayotida ishtiroy etish borasidagi tashabbuslarini qo‘llab -quvvatlash.

Dasturda bolaning rivojlanish sohalari kopetentsiyalari ya’ni-bilish jarayonining rivojlanishi sohasi kompetentsiyalarida bolalar bilim olishga faol qiziqishni namoyon etish, atrof-muhitdagi voqealarni kuzatadi hamda tatqiqqlishi, o‘quv-va hayotiy faoliyat uchun axborotni mustaqil ravishda topishi va undan foydalanish, predmetlar, voqealar va ko‘rinishlar o‘rtasida oddiy aloqalami tushunishi atrof-muhitga nisbatan ehtiyyotkorona va g‘amxur munosabatni namoyon etishlari ko‘rsatib o‘tiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, maktabgacha yoshdagi bolalar aqliy qobiliyatini rivojlantirish, tabiat bilan tanishtirish va ularning ekologik tarbiyasini amalga oshirishning qulay pedagogik usullarini ishlab chiqish va didaktik imkoniyatlarga boy tarbiyaviy vositalarini aniqlash alohida ahamiyatga ega bulib kelmokda. Bu muammoning yechimida xalq og‘zaki ijodiga mansub badiiy janrlardan biri - bolalarning zehnini charxlash, aqliy qobiliyatini va mantiqiy tafakkurini o’stirish, so‘z boyligini oshirish, nutq madaniyatini rivojlantirish maqsadida yaratilgan, qadim zamonalardan beri xalq pedagogikasida muhim tarbiya vositalaridan biri sifatida tan olinib, keng qo‘llanilib



kelinayotgan topishmoqlardan o‘rinli va unumli foydalanish ijobiy natija beradi. Binobarin, topishmoqlar o‘z janriy tabiatiga ko‘ra ixcham shaklli, mazmunan teran va hayotiy-badiiy zavqi baland barkamol namunalardir. Ular ko‘proq tabiat va jamiyat hodisalari, hayvonlarva o‘simliklar mavzularida yaratiladi. Shuning uchun topishmoqlar tarbiyaviy-didaktik imkoniyatlarga boy bo‘lib, bolalar diqqatini o‘ziga tez jalb qiladi va ular xotirasiga tez o‘mashib qoladi. Topishmoqlar deyarli barcha yoshdag‘i bolalarning qiziqishini o‘ziga jalb etuvchi ma’naviy-axloqiy o‘yin namunasidir. Ular bolalarning tevarak-atrofga kuzatuvchanligini oshiradi, tabiat voqealari-hodisalarining sodir bo‘lish sabablarini aniqlashga qiziqishlarini kuchaytiradi. Natijada bolalarning idroki, tasavvuri, qobiliyati, topqirligi, mustaqilligi rivoj topadi. Ayniqsa, topishmoqlar bolalarga borliqdagi narsa-hodisalarning yaxlit ko‘rinishida qismlardan, qism ko‘rinishida esa yaxlitlikdan tarkib topishini idrok etishlariga, olam bir butunligini anglab yetishlariga, hayot go‘zalliklaridan ma’naviy zavq olishlariga va shu go‘zallikni qadrlashlariga o‘rgatishda muhim rol o‘ynaydi. Maktabgacha ta’lim sohasi uzlusiz ta’lim tizimining birlamchi bo‘g‘ini hisoblanib, u har tomonlama sog‘lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillikning ilk yillardanoq ta’lim muassasalarini milliy an’alarimiz asosida isloh yetish, ularga zamona viy texnologiyalarni olib kirishga dolzarb vazifa sifatida qaralib kelinmoqda.

Maktabgacha ta’lim muassasalari uchun bola tarbiyasida turli o‘quv dasturlari, tavsiyalar bilan ish ko‘rishdan tashqari, mahalla, oilaviy muhit, bola bilan izchil munosabatda bo‘ladigan shaxslarning ta’sirini ham hisobga olmoqlari kerak. Bular bolaning shakllantirish muhiti, bola hayoti, tasavvuri, aqlni boyitib boruvchi manba bo‘lib, ular bola psixikasi, shaxsi, hayotiy tajribasi, faoliyatini boyitishning asosiy omili hamdir. Shu bilan bir qatorda bola har bir yoshda o‘zini o‘rab turgan muhitdan aynan o‘ziga zarur bo‘lgan hayotiy malakanini oladi. Yuqoridaq muhit anchalik toza va musaffo bo‘lsa, bolaning inson sifatida shakllanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Tabiiyki, bu jarayonning o‘ziga xos qonuniyatlarini mavjud. Ayniqsa bolalarni yoshlikdan mehnat qilishga va kattalar mehnatini qadrlashga o‘rgatish muhim hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qodirova F., Toshpo‘latova Sh., Azimova M. Maktabgacha pedagogika.-T., Ma’naviyat”.2013
- 2.Xasanova O.U. va boshq.Maktabgacha ta’lim pedagogikasi.T.: Ilm ziyo.2006.
- 3.Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. Tafakkur sarchashmalari, T.: 2013y.